



**SPECIFIC CHARACTERISTICS OF REPEATED NOMINATIONS IN
SYNTAGMATIC RELATIONSHIPS**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10083687>

Anarboyeva Iroda Oripovna

Andijan State Institute of Foreign Languages

iroda_an70mail.ru

ABSTRACT

The article examines the features and various aspects of repeated nominations in syntagmatic terms in different structured languages.

Key words

lexical unity, coherence, paradigmatic relation, syntagmatic relation, repeated nomination....

**SINTAGMATIK MUNOSABATDAGI TAKRORIY NOMINATSIYALARNING
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Anarboyeva Iroda Oripovna

Andijon davlat chet tillari instituti

iroda_an70mail.ru

ANNOTASIYA

Mazkur maqolada turli tizimli tillarda sintagmatik munosabatdagi takroriy nominatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari va farqli jihatlari hususida so'z boradi

Kalit so'zlar

leksik birlik, izchillik, paradigmatic munosabat, sintagmatic munosabat, takroriy nominatsiya....

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются особенности и различные аспекты повторных номинаций в синтагматическом отношении в разных структурированных языках.

Ключевые слова

лексическое единство, связность, парадигматическое отношение, синтагматическое отношение, повторная номинация....

Matn tarkibidagi gaplar qurilishida leksik birliklar izchillikda tizimlashadi. Bunda leksemalar ma'no va mazmun munosabatiga ko'ra tanlab olinadi. Ushbu izchillikda tanlab olingan leksik elementlar nafaqat uning paradigmatic



munosabatlari bilan, balki leksik birlik atrofida soʻzlar bilan sintaktik aloqasini ham aniqlab keladi. Sintagmatik munosabatlar maʼlum paradigmatic turkum ichidan soʻz tanlovini ham aniqlab berishi ahamiyatli sanaladi. Bunda paradigmatic va sintagmatik munosabatlar uzviy tadqiq etishni taqozo etadi.

Nutqiy jarayonda soʻzlar mantiqan ketma-ket bogʻlanib gap hosil qiladi. Bunda soʻzlar birma-bir talaffuz qilinib nutqiy akt yuzaga keladi. Ikki soʻz birdaniga talaffuz qilinishi nutqiy oqim kasb etadi. Ferdinand de Sossyur bunday bogʻlanishni sintagma deb ataydi. Nutqda til unsurlari erkin almasha oladi. Sintagmada maqollar, frazeologizmlar kabi birikmalar qoʻllanishi uning barqarorlik xususiyatini namoyon etadi. Bilamizki, barqaror birliklar nutqda hosil boʻlmay, tayyor kirib keladi. Bundan tashqari, maʼlum qoidalar asosida qurilgan barcha sintagmalarni ham nutqqa emas, balki tilga kiritish lozim, deydi. Chunki bunday qurilmalarning tilda tayyor namunalari mavjud boʻladi. Shuningdek, muayyan qoliplar asosida shakllangan birikma va gaplar haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Bunday qoliplar soʻzlovchi xotirasida oldindan mavjud boʻladi.

Matnda gaplarning toʻgʻri qurilishi soʻzlar birikuviga amal qilishni taqozo etadi. Semantik sintez tahlili soʻzlar birikuviga qonuniyatini oʻrganish masalasini semantik sathda ham oʻrganishni nazarda tutadi. Bu esa nominatsiyalarning gap tarkibidagi boshqa nominatsiyalarga bogʻliq ekanligi qonunlarini oʻrganishni talab qiladi.

Semantik sathdagi nominatsiyaning gap tarkibidagi boshqa nominatsiyalarga bogʻliqligining uch turi aniqlangan:

1. Sintagmatik jihatdan bogʻliq nominatsiya, yaʼni gap tarkibidagi soʻzlarning bir-biriga bogʻliqligi (gapni qurshab turgan nominatsiyalarga bogʻliq nominatsiya).
2. Vaziyat jihatidan bogʻliq nominatsiya, yaʼni muayyan vaziyatni suhbatdoshlar bilishiga bogʻliq nominatsiya.
3. Takroriy nominatsiya, yaʼni situativ elementning oldingi nomlanishiga bogʻliq nominatsiya¹.

Sintagmatik jihatdan bogʻliq nominatsiyalar zamirida soʻzlarning semantik jihatdan birikuviga qonuniyotadi.

Soʻzlarning semantik birikuviga qonuniyatiga koʻra ulardan toʻgʻri soʻz birikmasi tuzish uchun farqlovchi xususiy semadan tashqari ular bitta umumiy semaga ega boʻlishi darkor. Bunday umumiy semani fransuz olimlari B.Pote va A. Greymas klassemalar deb nomlaydilar.

Klassemalar iterativ xarakter kasb etadi, yaʼni muayyan xabarda bir necha bor kuzatiladi (kamida ikki marta), shu jihatiga koʻra yoyilib joylashgan nomlovchilar oʻrtasida aloqa roʻyobga chiqadi.

¹ Гак В.Г. Языковые преобразования. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1998. – С. 279



A.Greymas semantik izchillik (Sq) ichida farqlovchi semalar (N + N) va klassemalar (Cs) aloqasini shunday tasvirlaydi²:

$$Sq = q N Cs + N Cs \quad q = (N + N) Cs$$

Misol uchun, agar “простуженный” so‘zi jonli shaxsni tavsif etsa, u holda “простуженная женщина” birikmasi (N + N) Cs formulasiga monand tushadi, bu o‘rinda Cs - jonlilik semasi, N va N esa ko‘rsatilgan so‘zlarning xususiy semantemalaridir. “Простуженный стул” birikmasi noto‘g‘ri hisoblanadi, chunki ikkinchi semantemada “jonlilik” semantemasi mavjud emas.

Olimning keltirgan fikr va asoslovchi formulalaridan kelib chiqib, “klassesmalar” qatorida turli leksik-semantik guruh so‘zlari tarkibidan joy olgan va so‘zning farqlovchi komponentlariga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

- a) jonlilik/jonsizlik,
- b) inson/hayvon,
- d) erkak jinsi/ayol jinsi,
- e) katta yoshdagi shaxs/kichik yoshdagi shaxs,
- f) materiallik/nomateriallik,
- g) sanaluvchi/sanalmovchi,
- h) harakat/holat,
- i) o‘timli/o‘timsiz harakat.

Mazkur misoldagi klassemalar so‘z turkumlari ichida ma‘lum morfologik, sintaktik, so‘z yasaliq belgilariga ko‘ra so‘zlarning “kichik turkum”larini hosil qiladi.

So‘zlarning semantik tuzilishida klassemalar muhim ahamiyatga ega. Mazkur klassemadagi ma‘nolar xususiy ma‘noni shakllantiruvchi semalarga qaraganda kengroq izohga ega bo‘lib, ko‘p hollarda xususiy ma‘noni anglatuvchi belgilarning ham kengayishiga sabab bo‘ladi³.

Gapning sintagmatik shakllanishida klassemalar o‘rni juda ham seziladi. Ular ikki xil vazifa bajaradi - bog‘lovchi va tasniflovchi. Agar “klassesmalar” da, eng avvalo, nutqdagi bog‘lovchi element nazarda tutilsa, u holda ularni anglab yetishda yuqorida qayd etib o‘tilgan jihatlar ancha tor hisoblanadi va semantik bog‘lanishning ko‘pgina hollarini izohlab bera olmaydi.

Real nutqda bog‘lovchi semantik komponent rovida yuqorida sanab o‘tilgan komponentlarga o‘xshagan kategorial komponent kelishi mumkin, bunda kamida ikki semantema uchun umumiy hisoblangan har qanday arxisema, har qanday komponent ham ishtirok etishi kuzatiladi. Bu holda bunday semalar tasnifiy

² Greimas A. Semantique structurale. – Paris, 1966. – P. 53.

³ Pottier B. La definition semantique dans les dictionnaires//Travaux de linguistique et de litterature. IX,1, – Strasbourg, 1965.



funksiyasi ikkinchi planga o'tadi va bunday sharoitda "klassema" atamasi o'zini oqlamaydi.

Bunday iterativ funksiyada har qanday sema kelishi mumkin. Biz uni "klassema" emas, balki bog'lovchi semantik komponent (sintagmema) deb nomlaymiz. Bunda semantik komponent *sub'yekt - fe'l, fe'l - ob'yekt, aniqlovchi - aniqlanmish kabi bog'lanishi* kuzatiladi.

Bunda so'z aksidensiyasi (fe'llar, sifatlar) "fe'l + to'ldiruvchi" guruhida tobelanishni shakliy grammatik munosabatlarga zid bo'lsa, substansiya (otlar) so'zlarga monand tanlanadi.

Bir qator LSGni qamrab olgan umumiy sintagmemalar (klassemalar) bilan bir qatorda sintagmema rovida LSG doirasi bilan cheklangan kategorial arxisemalar kelishi mumkin. Masalan, "qatnov harakati" LSGda sub'yekt xususiyatiga ko'ra harakatda muntazam ishtirok etuvchi yurish xususiyati va vositasi bilan bog'langan qator sintagmemalar ajratiladi. Bu yerning o'zida ham jonli sub'yektlar xilma-xil xususiyatlar kasb etadi. Masalan:

uchmoq + jonli mavjudot, havoda harakatlanuvchi,

o'rmalamoq + jonli mavjudot, oyoqlar ishtirokisiz yerda harakatlanuvchi.

Ilon iniga yaqinlashdi", "Qush uyasiga yaqinlashdi" vaziyatini nomlash zarur bo'lsa, u holda "ilon" (o'rmalab harakatlanuvchi) va "qush" (uchib harakatlanuvchi) semantemalaridagi sintagmalar fe'llardagi monand sintagmemalarni oldindan aniqlay oladi: *ilon iniga tomon o'rmaladi, qush ini tomon uchdi kabi*⁴.

Sintagmemalar cheklangan qo'llanishga ega bo'lishi va faqat bir birikmada namoyon bo'lishi hamda intensivlik ifodasi misol sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ma'no ko'chishi kontekst va semantik sintagmatika shartlariga qarama-qarshi holda bo'lsa, qo'shimcha komponent hosil bo'ladi. Semaning matnda takror qo'llanishi natijasida so'zlar semantik, xissiy-emotsional yoki funksional-stilistik moslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гак В.Г. Языковые преобразования. – М.: Школа "Языки русской культуры", 1998. – С. 279
2. Greimas A. Semantique structurale. – Paris, 1966. – P. 53.
3. Гак В.Г. К типологии лингвистических номинаций // Языковая номинация (Общие вопросы). – М.: 1977. – С.293

⁴ Гак В.Г. К типологии лингвистических номинаций // Языковая номинация (Общие вопросы). – М.: 1977. – С.293



5. Anorboyeva Iroda Oripovna. The repeated nomination as a unit of consistency category.

<https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT/article/view/1459>

6. Mirzayeva Vazira Murodovna. The problem of the position of the adjective-epitet in French. <https://journalofresearch.us/2023-3-4-issue-of-the-journal/>

7. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Wsz_PqwAAAAJ&citation_for_view=Wsz_PqwAAAAJ;zYLM7Y9cAGgC

8. <https://zienjournals.com>